

EKOLOGIYA BUZULISHINING INSONLAR VA TABIATGA SALBIY TA'SIRI

Saidganiyeva Shahodatxon Talatbek qizi

O'rmon xo'jaligini rivojlantirish innovatsiya markazi kichik ilmiy xodimi

Annotatsiya:

Ushbu maqolada bugungi kunda ekologiyaning buzilishi natijasida kelib chiquvchi salbiy oqibatlar to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: ekologiyaning buzilishi, insonlarga zarari, zavod va fabrikalar, kimyoviy moddalar

Barcha tirik mavjudotlarni o'rab turgan ekologik muhitni bugungi kunda insonlar sababli salbiy tomonga o'zgarib ketmoqda. Hozirda dunyoda iqlim o'zgarishi va ekologiyaning buzilish holatlari keng tarzda kuzatilmoqda. Buning natijasida hayvonot va o'simlik dunyosida ma'lum bir turlarni kamayishiga, qishloq xo'jaligi mahsulotlarining sifatiga va hosil miqdoriga hamda insonlarning salomatligiga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bu jarayonlar bo'yicha chora-tadbirlar va atrof muhit muhofazasiga e'tibor qaratilmasa yaqin 30 yillikda ekologiyaning kuchli buzulishiga hamda insonlar orasida nafas yo'llari, turli teri kasalliklari va boshqa og'ir kasalliklarni kelib chiqishiga, oziq-ovqat miqdorining kamayishiga, hayvonlarni sonini keskin qisqarishiga sabab bo'ladi.

Ushbu global muammolar Markaziy Osiyo mintaqasi taraqqiyotiga ham o'z salbiy ta'sirini o'tkazmoqda. Orol bo'yidagi noxush ekologik vaziyat, buning ta'sirida kelib chiqayotgan tabiiy tangliklar, cho'llanish muammosi bunga misoldir.

Sanoat korxonalaridan chiqayotgan zararli chiqindilar, nitratlar va qishloq xo'jaligida ko'plab ishlatiladigan har xil zaharli preparatlar (pestitsid) va mineral o'g'itlardir. Bu zarali moddalar ozuqa mahsulotlari orqali odam organizmiga tushib har xil kasalliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Ma'lumki bir mintaqada kasalliklarning tarqalishi shu joyda yashovchi aholi bilan atrof-muhit o'rtasidagi munosabatlarga bog'liq. Masalan, ko'lmak suvlar to'planib qolgan joylarda bezgak chivinining yashashi uchun qulay sharoit yaratiladi va shu shu joylarda bezgak kasalligining paydo bo'lish ehtimoli yuzaga keladi.



Hozirgi vaqtda turli zavod va fabrikalarda 45 ming turga yaqin kimyoviy mahsulotlar ishlab chiqarilmoqda va aholiga sotilmoqda, jahon bo'yicha 300 mln. tonnaga yaqin organik moddalar ishlab chiqarilib, ular yordamida milliondan ortiq buyumlar tayyorlanmoqda. Lekin ishlab chiqarishda foydalanilayotgan ushbu kimyoviy moddalar ma'lum miqdorda havo, suv va oziq-ovqatlar orqali inson tanasiga ham kelib tushmoqdaki, buning natijasida turli xil yuqumli kasalliklar yuzaga kelmoqda. Chunki ayrim kimyoviy moddalar zaharlilik xususiyatiga ega bo'lsa, ayrimlari allergenlik, konserogenlik (rak kasalligini keltirib chiqarish xususiyati), mutagenlik (naslga ta'sir etish xususiyati) va teratogenlik (chala yoki mayib-majruh tug'ilishni yuzaga keltirish xususiyati), fibrogenlik (tanadagi to'qimalar birikmasining ajralishi) xususiyatlariga egadir. Bunday kimyoviy moddalarga, ayniqsa, og'ir metallar (qo'rg'oshin, kadmium, simob), noorganik gazlar (SO_2 , CO_2 , NO_2 , O_3), kremniy ikki oksidi (DDT, xlorli vinil va boshqalar) misol bo'lishi mumkin. Ushbu kimyoviy moddalar alohida holda ham, aralashma holda ham inson sog'lig'i uchun juda xavfli hisoblanadi. Keyingi yillarda saraton kasalligining ko'payishi, turli xil kasalliklarning yangi turlarini vujudga kelishi, asosan, kimyoning ta'siridandir[1].

Texnikaviy taraqqiyot davrida atmosfera havosining ifloslanishi Respublikamizning Olmaliq, Chirchiq, Farg'ona va Navoiy viloyatlarida, ayniqsa sezilarli darajada ortganligi hech kimga sir emas. Birgina Navoiy viloyati misolida oladigan bo'lsak, atmosfera havosining yuqori darajada ifloslanganligini kuzatish mumkin.

Ekologiyaning buzulishining yana bir sabablaridan biri o'rmonzorlar, bog'lar va daraxtzorlarning maydonini qisqarishi, aholi tomonidan daraxtlarni yoppasiga kesilishidir. Chunki kislorod gazi daraxtlarda fotosintez jarayonida hosil bo'ladi. Atmosferada gazlarning to'planishi sayyora iqlimining har qachongidan ham tez o'zgarishiga sabab bo'lmoqda. Daraxtlar har yili 22 kg karbon angidridni o'z ichiga oladi. Xar bir daraxt hayotida 1000 kg atrofida karbonat angidrid gazini yutadi. Bitta bir daraxt yiliga 120 kilogramm kislorod ajratadi. Bundan tashqari daraxtlar qushlar, hayvonlar va hashoratlar uchun uy vazifasini ham bajaradi[2].

Xulosa qilib aytganda, sanoat korxonalari chiqindilarini kamaytirish uchun ilg'or texnologiyalardan foydalanilgan holda chiqindisiz texnologiyadan foydalanishni keng yo'lga qo'yishimiz lozim. Zeroki, chiqindilar masalasi ekologiyadagi muhim muammolardan biri bo'lib, ularni qayta ishlash yoki gigiyenik talablar bo'yicha



ishlov berilsa nafaqat iqtisodiy jihatdan foyda ko‘ramiz, balki yerni, havoni suvni, oziq-ovqat mahsulotlarining ifloslanishi oldi olinadi, kishilar sog‘lig‘ini muhofaza qilishda katta ahamiyatga ega bo‘ladi va kelajak avlod uchun ham tabiatimizni oz musaffoligini saqlagan holda yetkazib bergan bo‘lamiz. Bundan tashqari, o‘rmonzorlar va bog‘lar maydonlarni kengaytirish, saqlanib qolgan daraxtzorlardan oqilona foydalanish va ularni parvarishlash lozim. Agar o‘rmonlarning kesilishi davom ettirilsa biz qisqa yoki uzoq vaqt havf-xatarlarga duchor bo‘lishimizga sabab bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rustamova R.P. Ekologiya buzilishining inson salomatligiga ta'siri // Academic research in educational sciences. 2022. №2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/ekologiya-buzilishining-inson-salomatligiga-ta-siri>
2. Nosirov N. "Daraxtlar muhim". Davlat ekologiya qo‘mitasi matbuot xizmati
3. Саидганиева, Ш. Т. К. (2022). ВЫРАЩИВАНИЕ ЛЕКАРСТВЕННОГО РАСТЕНИЯ АМАРАНТ И ЕГО ЭНТОМОФАУНА. Universum: химия и биология, (4-1 (94)), 30-33
4. Саидганиева, Ш. Т., & Туфлиев, Н. Х. (2021). Биологические свойства растения амарант и его значение в сельском хозяйстве. Вестник аграрной науки, 1, 85.